



IJTIMOIIY XODIMLARNING ISHSIZLIK MUOMMOSINI HAL ETISH BO'YICHA VAZIFALARI

Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo'rg'on filiali Ijtimoiy ish
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Amonova Dilnoza SHermat qizi

Xushbakov Sho'hratjon Baxtiyor o'g'li

Annotatsiya. Ushbu maqolada barcha davlatlar uchun birdek mummoga aylanayotgan, ko'pchilik millat va elatlarni musofirlik zahmatini chekishga majbur qilgan holat haqida so'z boradi. Yani, ishsizlik! O'zbekiston bu mummoga qanday kurash olib borayotgani ba boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi va ishlab chiqqan dasturlarini ko'rib chiqib xulosa bildirib chiqamiz.

Kalit so'zlar. Ishsizlik, migrant, iqtisod, huquq, mehnat, bandlik, ishsizlik, mehnat birjasi, talab va taklif, tadbirkor, sanoat. Voqimandalik, soliq, tadbirkor.

Абстрактный. В данной статье говорится о ситуации, которая становится равной проблемой для всех стран, вынуждающей многие национальности и народы выезжать за границу. То есть безработица! В заключение мы рассмотрим опыт и разработанные программы других развитых стран и то, как Узбекистан борется с этой проблемой.

Ключевые слова. Безработица, мигрант, экономика, право, труд, занятость, безработица, биржа труда, спрос и предложение, предприниматель, промышленность. Социальное обеспечение, налоги, предприниматель.

Abstract. This article talks about the situation that is becoming an equal problem for all countries, forcing many nationalities and peoples to travel abroad. That is, unemployment! We will conclude by looking at the experience and developed programs of other developed countries and how Uzbekistan is fighting this problem.

Key words. Unemployment, migrant, economy, law, labor, employment, unemployment, labor exchange, supply and demand, entrepreneur, industry. Welfare, tax, entrepreneur.



Barchamizga ma'lumki barcha rivojlangan davlatlar borki, ishsizlik muommosiga duch kelgan. Bu qandaydir bir davlatning mummosi bo'lib qolishi maqsadga muvofiq emas. Ishsizlik mummosi butun bir jamiyatning mummosidir. Unga qarshi kurashish esa, har birimizning maqsad va vazifamiz bo'lishi kerak. Ishsizlik o'zi nima? Nima sababdan paydo bo'ladi? Oddiy ta'riflamoqchi bo'lsak, ishsizlikni: iqtisodiy faol aholining bir qismi o'ziga loyiq ishni topa olmasligi deb aytsak ham bo'ladi. Jismonan sog'lom aholi qatlami, ishlashga layoqati bor, lekin o'ziga mos ishni, yani, qiziqishlariga to'g'ri keladigan ishni topa olmayapti. Bunga yana bir misol keltirsak bo'ladi: turli xil kasblarni egallamagan, hunar o'rganmagan, yoki ilmiy faoliyat bilan shug'ullanmagan. Mana shularning evaziga xalqning o'zi ishsizlik muommosini keltirib chiqaradi. Bu sabablarni oldini olish uchun jamiyatda turli xil sohalarga ijobiy kayfiyatni uyg'otishimiz kerak. Masalan ijtimoiy sohani olaylik. Ijtimoiy ish xodimlarining asosiy vazifasi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatishdan iborat. Shu bilan birga aholing ishsiz qatlamlarini ish bilan ta'minlash ularni turli sohalarga yo'naltirishdan iborat.

Bizning mamlakatimizda ishsizlik, ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik muammosi bo'lmasligi kerak, deb hisoblaymiz. Fuqarolar bandligini to'liq ta'minlash va mehnatga munosib haq to'lash, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori infratuzilmasining muvozanatlanganligi va rivojlanishiga erishish, ishsizlik darajasini qisqartirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Biz "Tadbirkorlik — aholi bandligining garovi!" g'oyasi hayotimizga to'liq joriy etilishiga intilamiz va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasi amaliyotini qo'llab-quvvatlaymiz. Kichik biznes va fermerlikni ish o'rinlarini yaratuvchi generator sifatida izchil qo'llab-quvvatlaymiz. Oilaviy tadbirkorlik, kasanachilik, tomorqa xo'jaligi va xususiy tadbirkorlikni aholi bandligini ta'minlash hamda fuqarolar oilaviy byudjeti daromadlarini o'stirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida ko'ramiz. Shu ma'noda, ishga layoqatli aholi uchun ularning mehnatga doir va tadbirkorlik faolligini yuzaga chiqarish, ishchi kuchining sifatini yaxshilash, bozor talablarini hisobga olib, ishga joylashishga muhtoj bo'lgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, oilaviy tadbirkorlik shakllantirish uchun chora tadbirlarni ishlab chiqish kerak.¹

¹<https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonda-ishsizlik-ayniqsa-yoshlar-urtasida-ishsizlik-muammosi-bulmasligi-kerak>., Mavludaxon XO'JAYEVA, O'zLiDePdan Oliy Majlis



Yuqoridagi fikrlarni keltirgan fikrlarimni tasdiqlamoqda. Biz yurtboshimizni yaratib berayotgan shart – sharoitlaridan unumli foydalanishimiz kerak. Albatta, davlat har bir fuqorosini ish bilan ta'minlashga majbur emas. Lekin, tadbirkorlik qilish uchun yaratilayotgan imkoniyatlarning barchasi, bizning farovon hayot kechirishimiz uchundir. Tadbirkorlar ko'paysa bo'sh ish o'rinlari paydo bo'ladi, aholining bandligi ta'minlanadi, xalq boy bo'ladi, xalqi boy bo'lgan davlat qudratli bo'ladi. Oddiy bir misol: tadbirkorlik obyektini shakllantirgan shaxslarga soliq stavkalari kamayadi, qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Bularning hammasi ishsizlik muommosiga qarshi kurash emasmi?

Masalan soliq qonunchiligiga ko'ra nogironlarni yoki ijtimoiy himoya reestriga kirgan shaxslarni ish bilan ta'minlagan tadbirkorlarga soliq imtiyozlari beriladi. Muammo shundaki, tadbirkor o'z ishi bilan ovora bo'lganligi uchun qayerda nogiron bor ekan deb izlab yurishga imkoni yo'q. Lekin Tadbirkor har oyda mehnat organlariga, soliq va statistika idoralariga hisobot topshirib turadi o'zida mavjud band va bo'sh ish o'rinlari haqida. Ijtimoiy xodim o'z aql-farosatini ishga solib shu ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega. Demak, mahallasidagi ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj kishilarni ishga joylashtirish orqali ishsizlik muammosiga yechim topishi mumkin.

Yana. O'zini o'zi band qilgan shaxslarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar beriladi. Qulay shartlar asosida. Shu mikro kreditlarni olib, nimadir ish bilan band bo'lishi mumkin.

Davlatimiz ishsizlikni olidini olish uchun qo'shimcha tamoyillarni ishlab chiqqan, bular:

Yangi ish o'rinlarini yaratish (kengaytirish yoki bo'limlar tashkil etish, boshqa mutaxassisliklar bo'yicha qayta tayyorlash) hisobidan bevosita korxonada bandlikni ta'minlash;

Jamoat ishlarini tashkil etish (hududlar, o'rmonlar, massivlar va shahar ko'chalarini obodonlashtirish, sabzavot bazalarida ishlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tozalash);

Xususiy tadbirkorlikni rag'batlash va aholining o'zini-o'zi bandligini ta'minlagan qismini rag'batlantirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish



Aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini tanishib chiqishi uchun shart-sharoitlarni yaratib berish, jumladan mehnat yarmarkalari va ochiq eshiklar kunini tashkil etish.

Ishsizlikning salbiy tomonlari:

Mehnat resursining bir qismi bekor qolib, mahsulot va xizmatlarni yaratishda qatnashmaydi.

Uzoq vaqt mobaynida ishsiz yurish kasbiy malaka va tajribani yo'qotishga olib keladi.

Ishsizlarni boqish tashvishi ishlayotganlar zimmasiga tushadi va ularga ishsizlik nafaqasini to'lash uchun soliqlarni oshirishga to'g'ri keladi.

Ishsizlar oilalarning daromadi keskin pasayib ketadi, ularga tegadigan nafaqa tirikchilikka yetmay qoladi. Yana imkoniyati cheklangan nogironlar uchun ha bir qancha imtiyozlar mavjud. Yuqorida sanab o'tilganlar bevosita jamiyatni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta, o'ylab ko'ring jamiyatimizda "bekochilar" qatlami ko'payishi bilan tartib va intizom ham sekin chetlashadi. O'g'rilik, talon-tarojlik, zo'ravonliklar kelib chiqadi. Dono xalqimiz ham bejizga – "bekorchidan hamma bezor" deb aytmagan. Bandligi ta'minlanmagan odamni qo'lidan yaxshi ish ham yomon ish ham kelishi mumkin. Yoki yana bir misol: vaqtinchalik ishsiz qolgan jamiyatimiz a'zolariga to'lanadigan ishsizlik nafaqasi. Shaxsiy qarashlarimda buni men unchalik oqlamayman. Nega deganda bu nafaqa bevosita boqimandalik kayfiyatini uyg'otadi va ushbu nafaqani to'lash zimmasi bandligi ta'minlangan shaxslarning bo'yniga tushib qoladi. Buyuk faylasuf Konfutsiyning bir ajoyib jumlasini bor: odamga baliq tutib bergandan ko'ra baliq tutishni o'rgatgan yaxshi. Ushbu jumla juda chuqur manoga ega. Albatta biz bir marotaba baliq tutib bersak u shunga o'rganib qoladi. Va o'zi harakat qilib ko'rmaydi. Baliq tutishni o'rgatsak. U shu orqali ham o'ziga ham jamiyatga foyda olib keladi.

Ishsizlik mummosiga Hindiston mamlakati qanday dasturlarni ishlab chiqqanligini ko'rib chiqamiz va ularni bazilardan foydalansak bizning jamiyatimizda qanday o'zgarishlar bo'lishini gipoteza qilib ko'ramiz.

Mehnat birjalarini kengaytirish: Ko'proq bandlik birjalarini ochish kerak. Odamlarga ishga joylashish imkoniyatlari haqida ma'lumot berilishi kerak.



Ishlab chiqarishning o'sishi: Aholi bandligini oshirish uchun qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarishni ko'paytirish zarur. Kichik va yozgi sanoatni rivojlantirishni rag'batlantirish kerak.

Bandlik dasturlariga ko'proq ahamiyat berish: Besh yillik rejalarda xodimlarga ko'proq e'tibor berilishi kerak. Sug'orish, yo'llar, suv toshqinlarini nazorat qilish, elektr energiyasi, qishloq xo'jaligi, qishloqlarni elektrlashtirish kabi dasturlar odamlarni yaxshi ish bilan ta'minlashi mumkin.

Kooperativ sektoridagi sanoat tarmoqlari: Kooperativ sektordagi sanoat tarmoqlarini rag'batlantirish kerak. Kerala hukumati kooperativ asosida 600 nafar ishsizni qamrab oluvchi to'qimachilik fabrikasini tashkil etdi. Bu ishsizlikka qarshi kurashning yangicha yondashuvidir. Turli shtat hukumati. bu borada zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.²

Ushbu yondashuvdan foydalanishimiz kerak degan xulosaga keldik. Ishsizlik mummosining eng katta yechimlaridan biri ishlab chiqarish xo'jaliklarini va sanoat korxonalarini ko'paytirishdir. Shu bilan bandlik sohasini to'liq isloh qilib tarmoqlarini kengaytirishimiz kerak. Tadbirkorlikni rag'batlantirishimiz kerak. Ushbu dasturlar ishsizlik mummosiga yechim topishimiz uchun ancha foyda bergan bo'lar edi.

Xulosa: Ushbu dolzarb mavzuni ko'rib chiqish natijasida biz juda ko'p bilimlarga ega bo'ldik. Xususan, bu muammo bizning davlatimizda ham bor va unga qarshi qanday chora tadbirlar bo'layotganini ko'rib chiqdik. Chet el tajribasini ham o'rganib chiqdik. Agarda ushbu o'rganilgan bilimlardan unumli foydalana olsak, biz ko'plab mummolarni bir vaqtda bartaraf etishimiz mumkin bo'lar edi. Ham iqtisodiy ham ijtimoiy hattoki, ma'naviy muommolarni bartaraf etgan bo'lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekistonda-ishsizlik-ayniqsa-yoshlar-urtasida-ishsizlik-muammosi-bulmasligi-kerak.,Mavludaxon> **Ho'jayeva, O'zLiDePdan Oliy Majlis**
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ishsizlik>
3. <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/99/129>
4. <https://www.linkedin.com/pulse/how-solve-unemployment-problem-nurul-huda-laskor-ashik>

² <https://www.linkedin.com/pulse/how-solve-unemployment-problem-nurul-huda-laskor-ashik>